



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш.....	116
Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

AYLANMA IQTISODIYOTGA O‘TISHNING FUNDAMENTAL ASOSLARI: CHIZIQLI MODELNING CHEKLOVLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПЕРЕХОДА К ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ОГРАНИЧЕНИЯ ЛИНЕЙНОЙ МОДЕЛИ И ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

FUNDAMENTAL FOUNDATIONS OF THE TRANSITION TO A CIRCULAR ECONOMY: LIMITATIONS OF THE LINEAR MODEL AND OPPORTUNITIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Ibrohimov Nurbek Bahodirjon o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti 2- bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Jabbarov Kamoliddin Yo‘ldoshevich

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada an’anaviy chiziqli iqtisodiyot modelidan aylanma iqtisodiyotga o‘tish jarayoni va uning zamonaviy iqtisodiyot uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Chiziqli modelning resurslardan samarasiz foydalanish, chiqindilar hajmining ortishi hamda ekologik muammolarni kuchaytirishi asosiy cheklovlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada aylanma iqtisodiyot tamoyillari, jumladan resurslarni qayta ishlash, qayta foydalanish va ishlab chiqarish siklini uzaytirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari aylanma iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Aylanma iqtisodiyot, chiziqli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, yashil iqtisodiyot.

В данной статье рассматривается процесс перехода от традиционной линейной модели экономики к циркулярной экономике и его значение для современной мировой экономики. Анализируются основные ограничения линейной экономики, включая неэффективное использование ресурсов, рост объемов отходов и усиление экологических проблем. В статье раскрываются ключевые принципы циркулярной экономики, такие как переработка, повторное использование ресурсов и продление жизненного цикла продукции, направленные на обеспечение устойчивого экономического роста. Результаты исследования подтверждают, что переход к циркулярной экономике способствует повышению экономической эффективности, экологической устойчивости и стимулированию инновационного развития.

Ключевые слова: Циркулярная экономика, линейная экономика, устойчивое развитие, эффективное использование ресурсов, сокращение отходов, переработка, зелёная экономика.

This article examines the transition from the traditional linear economic model to the circular economy and its significance for the modern global economy. The study analyzes the main limitations of the linear economy, including inefficient resource use, increasing waste generation, and growing environmental challenges. The article highlights the core principles of the circular economy, such as recycling, reuse, and extending product life cycles, as key mechanisms for achieving sustainable economic growth. The findings indicate that the shift towards a circular economy plays a crucial role in improving economic efficiency, ensuring environmental sustainability, and fostering innovation-driven development.

Key words: Circular economy, linear economy, sustainable development, resource efficiency, waste reduction, recycling, green economy.

Aylanma iqtisodiyot bugungi kunda jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan eng dolzarb konsepsiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. An'anaviy "ol-ishlat-tashla" modeli resurslarning tezkor tanqisligi, atrof-muhit ifloslanishi va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni kuchaytirib borayotgan bir sharoitda aylanma iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qiymat zanjirini uzaytirish orqali iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishni maqsad qiladi. Shu boisdan, aylanma iqtisodiyot tamoyillari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishiga aylanib, global miqyosda raqobatbardoshlik, innovatsiyalar va yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiyotning bosh masalasi hisoblangan resurslarning cheklanganligi hamda ehtiyojlarning cheksizligi asrlar, yillar davomida tabiatda mavjud bo'lgan resurslarni maksimal foyda keltiradigan sohalarga yoki jarayonlarga yo'naltirilishi kerakligini taqozo etib kelmoqda. Bu jarayonlarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlar va sohalari (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va hokazo) yillar davomida turli xil model hamda yondashuvlarni o'z boshidan o'tkazdi. Masalan, hozirgi kunga dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotida saqlanib qolayotgan, kelib chiqishi XIX asr oxirlari va XX asr boshlariga borib taqaladigan chiziqli iqtisodiyot modeli (tabiiy boyliklarni keng miqyosda qazib olish, ishlab chiqarish orqali foydani maksimallashtirish xarakteriga ega bo'lgan model), ikkinchi jahon urushidan keyingi g'arb mamlakatlari iqtisodiyoti, farovonligini qayta tiklashda eng to'g'ri yechim vazifasini bajargan bo'lsada, ekologik chegaralar bilan hisoblashmay amalga oshirilgan bu iqtisodiy rivojlanish yo'li bugungi kunga kelib, zaharli gazlar ajralib chiqishi va iqlim o'zgarishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi [1].

Aylanma iqtisodiyot ildizlar o'tgan asrning 70-yillariga borib taqaladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, urushda bevosita ishtirok etgan davlatlar ekologik va iqtisodiy masalalar o'rtasidagi bog'liqlik haqida fikr yurita boshlashdi. Misol uchun 1966-yilda ingliz iqtisodchisi Kennet Boulding o'zining maqolasini nashr etdi va uning fikriga ko'ra yer cheklangan resurslarga ega bo'lgan kosmik kema bo'lib, bu yerda insoniyat omon qolishi uchun mavjud bo'lgan narsalardan unumli foydalanish orqali o'z resurslarini boshqarishi kerak degan g'oyani ilgari surgan [2].

Biroq, aylanma iqtisodiyotning zamonaviy konsepsiyasi asoschisi sifatida Walter Stahel e'tirof etiladi. Stahel 1976-yilda Yevropa Kommisiyasiga bergan hisobotida aylanma iqtisodiyot ma'nosini yoritib berdi va keyinchalik 1982-yilda "Product-Life" institutiga asos soldi. Bu institut yangi aylanma tizimlar uchun barqarorlik strategiyasi va tizimlarni tadqiq etardi. Keyinchalik, 2002-yilda William McDough va Michael Braungart o'zlarining "Cradle to Cradle" kitobini nashr etishdi, va unda chiziqli yondashuvdan ko'ra aylanma yondashuv ko'proq zarurligiga e'tibor qaratishdi [3].

Ilmiy adabiyotlarda aylanma iqtisodiyotga 100 dan ortiq ta'riflar mavjud bo'lsa-da, ularning barchasida umumiy jihatlar kuzatiladi. Aylanma iqtisodiyot, asosan, resurslardan samarali foydalanish, qayta ishlash va qayta foydalanish orqali material isrofini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy model sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy iqtisodiyot rivojlanib borishi bir tarafdin o'sib borayotgan iste'mol talabini qondirayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin global isish, havo ifloslanishi va boshqa bir qancha ekologik va ijtimoiy muammolarga sabab bo'lmoqda. Aylanma iqtisodiyot esa yuqorida keltirilgan muammolarga yechim bo'lishi, shu bilan bir qatorda yanada barqaror kelajakni yaratishi mumkin.

Lekin bu yangi iqtisodiy model bir qancha faktorlar bilan chambarchas bog'liq. Ekologik ko'rsatkichlarga ko'ra dunyodagi jami zararli gazlarning 45 % i mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'moli, shuningdek, oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari hissasiga to'g'ri keladi. Aylanma iqtisodiyot modeli esa zararli gazlar miqdorini 39 foizga (22,8 milliard tonna) qisqartirishi, iqlim o'zgarishining xavfli oqibatlarini oldini olishda muhim rol o'ynashi mumkin. Masalan, materiallarni qayta ishlash jarayonlariga o'tilishi, plastik idishlar va sintetik tolalarni doimiy yangi ishlab chiqarish jarayonlarini kamaytiradi. Bu esa o'z navbatida yoqilg'i sarfini, shuningdek bu yoqilg'i yonganda ajralib chiqadigan zararli gazlar miqdorini sezilarli darajada kamaytiradi.

Iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aylanma iqtisodiyot innovatsiyalarni rag‘batlantirish, resurslarning behuda sarfini kamaytirish va yangi ish o‘rinlarini hosil qilish orqali 4,5 trillion AQSH dollarlik yangi iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etadi.

World Resource Institute manbalariga ko‘ra, har yili iqtisodiyotga 100 milliard tonnadan ortiq resurslar kiradi [4]. Ularning tarkibi metallar, minerallar, qazib olinadigan yonilg‘ilardan tortib o‘simlik va hayvonlarning organik materiallarigacha yetadi. Bu xom-ashyolarning faqatgina 8,6 % qismigina qayta ishlanadi yoki qayta ishlatiladi. Bugungi kunga kelib, resurslardan foydalanish darajasi 1970-yil bilan solishtirganda 3 barobar oshdi, agar bizneslar mavjud modellar asosida ishlashda davom etsa 2050-yilga borib bu miqdor yana 2 barobarga o‘shishi mumkin. Agarda shu holat ro‘y beradigan bo‘lsa, hozirgi resurs talabini qondirish uchun yana bir yarimta Yer sayyorasi kerak bo‘ladi.

Pablo Rosado va Hannah Ritchie tomonidan 2020-yilda nashr etilgan va 2024-yilda qayta ishlangan maqolaga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab zaharli gazlar miqdori eng ko‘p to‘g‘ri keladigan soha sanoat bo‘lsa, undan keyingi o‘rinda avtomobillar atmosferaga chiqaradigan gazlar va umuman transport sektori yetakchi hisoblanadi [5].

Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab 40 dan ortiq mashina ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mavjud bo‘lib, 2023-yilda 89,8 million dona avtomobil ishlab chiqarildi. Yildan-yilga o‘sib borayotgan talabdan kelib chiqqan holda, avtomobilsozlik sanoati ko‘plab mutaxassislar tomonidan aylanma iqtisodiyotga to‘liq transformatsiya qilinishi lozim bo‘lgan eng yirik sohalardan biri sifatida ko‘riladi. Jumladan, mamlakatimizda ham dunyo bozorlariga raqobatbardosh mahsulot yetkazib berish, ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko‘paytirish, mahsulot ishlab chiqarish tannaxrlarini kamaytirish va ekologik standartlarga to‘liq javob beradigan avtomobilsozlik sohasiga ega bo‘lishni xohlasak, aylanma iqtisodiyotning butun dunyo avtomobilsozlik sohasida qo‘llangan tajribalarini o‘rganish katta imkoniyatlarga eshik ochishi mumkin.

Hozirgi kunda avtomobil sanoati ichki yonuv dvigatelli avtomobillardan elektromobillarga siljishni amalga oshirmoqda. Butun dunyo bo‘ylab iste‘mol natijasida yuzaga keladigan chiqindilarning 14 % i avtomobil sanoati hissasiga to‘g‘ri kelishi va buning natijasida yuzaga kelayotgan antropogen ta’sirlarga javob sifatida bir qancha qisqa muddatli yoki aynan ma’lum bir manzilga qaratilgan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar qisqa muddatli va ayrim muammolargagina yechim bo‘ladi xolos. Shuning uchun mutaxassislar yaxlit tizim va yechim sifatida avtomobil sanoatidagi chiziqli iqtisodiyot modelini aylanma iqtisodiyot modeliga o‘zgartirishni taklif etishmoqda.

Aylanma iqtisodiyot modelidan foydalanish iqtisodiy o‘shishni bilan bir qatorda atrof-muhit holatining yaxshilanishiga ham olib keladi. Bu o‘z navbatida chiziqli modelga nisbatan bir qancha afzalliklarni taqdim etadi. Taqqoslash uchun, barqarorlikka intilayotgan har bir jamiyat iqtisodiy ne‘matlar ishlab chiqarish bilan bir qatorda ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni amalga oshirishni niyat qiladi.

Aylanma iqtisodiyot modeli asosi esa xuddi shunday g‘oyalar, konsepsiyalar va ilmiy izlanishlar asosiga qurilgan hisoblanadi. Bu konsepsiyalar tarkibiga sanoat ekologiyasi, sanoat ekotizimlari, sanoat simbiozi, toza (ekologik) ishlab chiqarish, ishlab chiqarish tizimlari, mahsulot-xizmat tizimlari, eko-samaradorlik, tabiiy kapitalizm, samarali iqtisodiyot va boshqa bir qator “zero emissions” (nollik gaz chiqindilari) kabilar kiradi.

UzAuto Motors ning 2022-yilda chop etilgan “Barqaror rivojlanish strategiyalari” dasturiga ko‘ra, kompaniya o‘zining joriy va oldingi ESG yondashuvlarini birlashtirishga intiladi hamda ko‘rib chiqish uchun ochiq bo‘ladigan keng qamrovli rivojlanish doirasiga e’tibor qaratadi. UzAuto Motors ning barqaror rivojlanish bo‘yicha hisoboti tashkilotning faoliyatini aks ettiruvchi muhim deb topilgan mavzularga qaratilgan. Muhim iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta’sirlar yoki manfaatdor tomonlarning kompaniyaga oid fikrlari va qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan mavzular kompaniyaning barqarorlik tamoyillarini uning kundalik faoliyatiga integratsiyalashgan holda manfaatdor tomonlar uchun uzoq muddatli qiymat yaratish qobiliyatiga taalluqli va unga ta’sir qiluvchi eng muhim omillardir.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda shu ta’kidlash lozimki, 2023-yilning 17-may sanasida Samarqand shahrida Yevropa Ittifoqi, Fransiya Taraqqiyot Agentligi (FTA) va O‘zbekiston hukumati o‘rtasida O‘zbekistonning 2030-yilga kelib yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirishga qaratilgan bitim imzolandi[6].

Yevropaning “Global shlyuz” strategiyasi va YIning Yashil siyosati ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq, kelishuvning maqsadi yuqori ekologik standartlarga rioya qilish uchun sharoit yaratish, hukumatning turli sohalarda yashil iqtisodiyot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda imkoniyatlarini oshirish va aholini barqaror ish bilan ta’minlashdan iborat.

Team Europe tashabbusi doirasida Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonga 10,2 million yevro miqdorida grant yordamini taqdim etadi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosati masalalarida FTA tomonidan jami 375 million yevro miqdorida imtiyozli kredit ajratiladi. Hisobotda qayd etilishicha, undan 150 million yevro berib bo‘lingan.

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatida aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish jarayonlarini faollashtirish uchun quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Qonunchilik va me’yoriy-huquqiy baza;
- Innovatsion texnologiyalar va rivojlanish;
- Korxonalar va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik;
- Texnologik yechimlar va raqamlashtirish.

Avtonom texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish uchun test maydonchalari, O‘zbekiston hududida avtonom transport vositalarini sinovdan o‘tkazish uchun maxsus test maydonchalari va yo‘l tizimlarini yaratish. Bu maydonchalarda yangi texnologiyalar sinovdan o‘tkazilib, ularning samaradorligi va xavfsizligi baholanadi.

Yashil texnologiyalar va barqarorlik prinsiplarini avtomobilsozlik sanoatiga joriy etish atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ekologik toza materiallar va qayta ishlangan materiallardan foydalanish, avtomobil ishlab chiqarishda qayta ishlangan va ekologik toza materiallardan foydalanish nafaqat chiqindilarni kamaytiradi, balki resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish ham eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun ishlab chiqarish jarayonida chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur.

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatida innovatsion texnologiyalar va rivojlanish tamoyillarini joriy etish nafaqat sanoatning raqobatbardoshligini oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun ham muhimdir. Tadqiqot va rivojlanishga investitsiyalarni ko‘paytirish, elektr va avtonom transport vositalarini rivojlantirish, raqamli transformatsiya va yashil texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati xalqaro miqyosda raqobatbardosh va barqarorlikka erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.tondo.tech/en/circular-economy/what-is-circular-economy/?gad_source=1&gclid=EAIaIQobChMIInPC767rhAMVuUKRBR0u3wpTEAAYASA AEgLDofD_BwE
2. https://arachnid.biosci.utexas.edu/courses/thoc/readings/boulding_spaceshipearth.pdf
3. https://www.amazon.com/Cradle-to-Cradle-audiobook/dp/B001EPO5GK/ref=tmm_aud_swatch_0?_encoding=UTF8&qid=&sr=
4. <https://www.wri.org/insights/5-opportunities-circular-economy>
5. <https://ourworldindata.org/emissions-by-sector>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/17/green-economy/>